

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KABILOVA SAYYORA ABDUKARIMOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUBLITSISTIK DISKURSDA
EVFEMIZMNING LISONIY VOQELANISHI

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.111’42

811.512.133’42

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Kabilova Sayyora Abdukarimovna

Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmning lisoniy voqelanishi..... 3

Кабилова Сайёра Абдукаримовна

Языковая реализация эвфемизмов публицистического дискурса в английском и узбекском языках.....27

Kabilova Sayyora Abdukarimovna

Linguistic Implementation of Euphemisms of Publicistic Discourse in the English and Uzbek Languages.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KABILOVA SAYORA ABDUKARIMOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUBLITSISTIK DISKURSDA
EVFEMIZMNING LISONIY VOQELANISHI

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2559 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Shaxriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Siddikova Iroda Abduxurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Usmonova Shahodat Abdurahimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "28" iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 1187 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "9" iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil "9" iyul dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi)



I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lisoniy hodisalarni yangi ilmiy yondashuvlar doirasida talqin qilish, matn va diskursning lingvomadaniy, pragmalingvistik, semantik-struktur xususiyatlarini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, xususan, publitsistik diskursning kommunikativ yaxlitligini ta'minlashda ahamiyatli hisoblangan evfemizm hodisasining lisoniy voqelanishini ilmiy jihatdan yoritish ularning vazifaviy qonuniyatlari lisoniy tizimlashtirilishiga doir nazariyalarni ilmiy baholash imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida evfemiya hodisasi turli tillar doirasida chog'ishtirma o'rganilib, ularning morfologik, struktur-semantik, lingvostilistik, leksikografik xususiyatlari, mazkur kategoriyaga tegishli birliklarning leksik-frazeologik, universal, differensial, tavsifiy-tasnifiy belgilari mufassal yoritilmoqda. Zero, evfemizmlarining shakllanish tarkibi, matnning temporal, lokal va shaxs kategoriyalarini tavsiflash doirasidagi tadqiqi ularning funksional qonuniyatlari matn kommunikativ belgisini baholash qiymatini hamda innovasion taraqqiyot istiqbollarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida O'zbekiston Respublikasini ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"¹ning davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovasiya faoliyatini takomillashtirish o'zbek tilshunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Turli soha mutaxassislarining rus, ingliz, nemis va boshqa tillarni mukammal bilishlari, xorijiy tillarda erkin fikrlash, muloqot yuritish qobiliyatiga ega bo'lish, mamlakatlararo munosabatlarda turli tillardan foydalanish, bir-birini tushunishning ahamiyatini anglash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Siyosiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan publitsistik matnning semantik va kommunikativ yaxlitligini ta'minlashda evfemizmlarning rolini ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirib ochib berish, ularni tarjimada berish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirish chog'ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslikning rivojiga zamin yaratadi.

Mazkur dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral. № 28 (6722).

20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari tug‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida matn va diskurs masalasi tilshunoslik, semiotika, pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik doirasida ularning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek antroposentrizm, intensionallik, vaziyatlilik, struktur-semantik yaxlitlik, ochiqlik, diamiklik, temporallik, lokallik kabi xususiyatlarni yoritish masalasida bir qator olimlar, xususan, P. Grays, T.A. van Deyk, Ch. Morris, Z.S. Harris, Ye. Sheygal, Yu.S. Stepanov, I.R. Galperin, N.D. Arutyunova, Ye.V. Paducheva, N.F. Alefirenko, V.A. Maslova, N.N. Mironova, I.A. Sternin, S.G. Ter-Minasova, V.I. Karasik, mahalliy olimlardan Sh.S. Safarov, S. Boymirzayeva, D.U. Ashurova, D. Xudoyberganova, G‘.Q. Mirsanov, N.Z. Normurodovlarning² ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Evfemiya hodisasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar son jihatidan ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, uning publitsistik diskursda lisoniy voqelanishi

2 Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58; Dijk van T.A. Discourse, Power, Access // Texts and Practices: Reading in Critical Discourse Analyses. – London, 1996. – P. 84-104; Morris C.W. Signs, Language and Behavior. – New York: Prentice Hall, 1946. – 365 p.; Harris Z.S. Discourse Analyses: Reprints. – The Hague, 1963. – 154 p.; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – М.: Перемена, 2000. – 376 с.; Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности. // Язык и наука конца XX века: сборник статей. – Москва: Институт языкознания РАН, 1995. – С. 35-73; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 140 с.; Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. 16. – Москва, 1985. – С. 3-42; Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – Москва: Флинта: Наука, 2005. – 416 с.; Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – Москва: Наследие, 1997. – 206 с.; Миронова Н.Н. Дискурс-анализ оценочной семантики: учеб. пособие по языкознанию. – М.: Тезаурус, 1997. – 157 с.; Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: ВГУ, 1979. – 156 с.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: учеб. пос., 2002. URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/Ter/_Index.php; Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. – Волгоград, 2000. – С. 21-28; Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 318 b.; Boymirzayeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. – Toshkent, “O‘zbekiston milly ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 188 b.; Ashurova D.U. Text linguistics. – Tashkent: “Tafakkur qanoti”, 2012. – 204 p.; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.; Mirsanov G‘. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2018. – 156 b.; Normurodova N.Z. Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal eksplikatsiyasi. Filol. fan. dok... dis. avtoref. – T., 2020. – 17 b.

hamda tillar doirasida chog‘ishtirma o‘rganish borasida qator muammolar ham mavjudki, ularni aniqlash va yechimini topish zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarini jalb qilgan holda yangicha yondashuvni talab qiladi. Evfemizmlarning funksional tabiati N.S. Arapova, A.M. Kasev, V.P. Moskvina, L.A. Bulaxovskiy, A.A. Reformatskiy, N. Zolner, Ye. Sheygal, mahalliy olimlardan N. Ismatullayev, A. Omonturdiyev, M. Mirtojiyev, A. Mamatov, M.K. Hakimovalar³ ishlarida o‘z aksini topgan. N.N. Fayziyevaning⁴ dissertasiyasida evfemizmlarning siyosiy diskursda faollashuvining pragmatik jihatlarini yoritilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlar evfemizmlarning lisoniy tabiatining ayrim jihatlariga taalluqlidir. Shuningdek, evfemizmlarning pragmatik ahamiyati, funksional-semantik rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar E. Partridge, A.R. Spers, J.S. Neyman va C.G. Silver, D.D. Oaks, K. Allan⁵ kabi inglizcha olimlar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, evfemizmlar publitsistik matnning muhim birligi sifatida o‘rganilmagan.

Mazkur dissertasiyada evfemizmlar matn derivasiyasi salohiyatiga ega bo‘lgan birliklar yoki iboralar sifatida qaraladi. Evfemiya hodisasi publitsistik diskursda lingvomadaniy, psixolingvistik ta‘sir vositasi sifatida, shuningdek, ijtimoiy nutqning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya Samarqand davlat chet tillar institutining “Diskursning kognitiv, pragmatik, va sosiolingvistik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmlarning lisoniy voqelanishining semantik-struktural xususiyatlari hamda

³ Арпова Н.С. Эвфемизмы. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – 683 с.; Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия: Учебное пособие к спецкурсу. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1988. – 80 с.; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Волгоград: Ленанд, 1999. – 360 с.; Булаховский Л.А. Табу и эвфемизмы // Введение в языкознание. – ч. 2. – Лексикология – М.: Учпедгиз, 1953. – С. 50-54; Реформатский А.А. Введение в языковедение. – 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2005. – 536 с.; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Волгоград: Ленанд, 1999. – 360 с.; Zöllner N. Der Euphemismus im alltäglichen und politischen Sprachgebrauch des Englischen. – Frankfurt: Main, Lang, 1997. – 444 p.; Шейгал Е.И. Эвфемизм и ирония в политическом тексте // Филология. Phylologica. – Краснодар, 1997. № 11. – С. 47-49; Шейгал Е.И. Эвфемизация в политическом дискурсе // Языковая личность: проблемы креативной семантики. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 158-171; Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 23 с.; Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b.; Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 b.; Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi shakllanishi masalalari. Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – 56 b.; Hakimova M.K. O‘zbek tilida evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari // O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. – Toshkent, 2021. – B. 33-35.

⁴ N.N. Fayziyeva. Siyosiy diskurs evfemizmlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari. Filol. fan. dok... diss. – Toshkent, 2023. – 128 b.

⁵ Partridge E. Usage and abuse. – New York: Penguins Books, 1964. – 379 p.; Spears A.R. Slang and euphemism. – New York: New American Library, 1982. – 462 p.; Neaman J.S., Silver C.G. Kind Words: A Thesaurus of Euphemisms. – New York: Facts on File, 1990. – 373 p.; Oaks D.D. Old English euphemisms // General Linguistics. – University Park, 1993. – P. 57-63; Allan K. Linguistics meaning. – London, New York: Routledge and Kegan Paul, 1986. – 452 p.

matnning kommunikativ yaxlitligini ta'minlashdagi roli va ularni tarjima qilish usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

evfemizmlarning matnning tarkibiy yaxlitligini ta'minlash vazifasini tavsiflash;

evfemizmlarni matnning temporal, lokal tuzilishi hamda shaxs kategoriyasini shakllantirishdagi ishtirokini yoritish;

evfemizmlarning faollashuv xususiyatlarini aniqlash orqali ularning kommunikativ mohiyatini belgilash;

evfemizmlarning anaforik va kataforik vazifalarini tahlil qilish vositasida ularning prospektiv va retrospektiv ma'lumotni yetkazish imkoniyatini yoritish;

publitsistik matn doirasidagi evfemizmlarning tarjimada berilishi masalalarini o'rganish hamda ularning yechimini topish bo'yicha tavsiflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillari publitsistik matnlarida faollashgan evfemizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmlarning lisoniy voqelanishning semantik-struktural va tarjima xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, komponent, distributiv, struktur-semantik, lingvostilistik, kontekstual sharhlash kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmnining grammatik, leksik va sintaktik sathlarda shakllanish usullari, nutq bo'laklari vazifasida faollashuvi yoritilgan;

diskursning aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa ekanligini hisobga olgan holda ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmnining temporallik kategoriyasi doirasidagi monotemporal va politemporal xususiyatlari, lokallik kategoriyasi doirasida namoyon bo'ladigan avtosemantik va sinsemantik belgilari hamda ularning shaxs-son kategoriyalarida ishtiroki aniqlangan;

chog'ishtirilayotgan tillar publitsistik diskursining semantik yaxlitligini ta'minlashda evfemizmnining anaforik va kataforik munosabatni amalga oshirishdagi roli isbotlangan;

evfemizmnining publitsistik diskursining axboriy mazmunini ifodalovchi rema xususiyati hamda gapning boshlang'ich nuqtasini ifodalovchi tema vazifasida kelishi dalillangan;

publitsistik matn doirasidagi evfemizmnining tarjimada berilishi masalalari o'rganilib, tarjima jarayonida dastlab ularni matn doirasida ajratish, so'ngra uning asl evfemistik ma'nosini aniqlash va muqobil shaklini tanlashga oid tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari publitsistik diskursida evfemizmlarning lisoniy voqelanishi ijtimoiy, axloqiy, etnik, madaniy va psixologik me'yorlar bilan bog'liqligi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillari publitsistik diskursida evfemizmlarning temporallik, lokallik va shaxs kategoriyalarini ifodalashidagi mohiyati ochib berilgan;

publitsistik matn doirasida evfemizmlarning anaforik va kataforik vazifasi, tema va rema sifatida voqelanishi hamda ularning grammatik qurilishi tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tavsifiy, komponent, distributiv, struktur-semantik, lingvostilistik, kontekstual sharhlash tahlil metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalari matndagi evfemizmlarning ilgari o'rganilmagan vazifalarini aniqlashga imkon beradi, shuningdek, evfemizmlarni matnning semantik, kommunikativ va strukturaviy yaxlitligini tashkil etuvchi vositalar va usullar qatoriga qo'shish imkoniyati, natijalarning boshqa tillar misolida evfemizmlarning matn derivasiyasidagi vazifalari va lisoniy xususiyatlarini o'rganishga hissa qo'shishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati chet tillarini o'rganishda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni yozishda, publitsistik matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda, chet tillarining leksik xususiyatlarini, xususan, evfemizmlarning lisoniy voqelanishi xususiyatlarini o'rganishda foydalanish imkoniyatidan iborat. Natijalardan "Matn tilshunosligi", "Tarjima nazariyasi", "Leksikologiya", "Stilistika" kabi nazariy kurslarda, shuningdek, ingliz va o'zbek tillarini amaliy o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmlarning lisoniy voqelanishini aniqlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

tadqiqotning evfemizmlarning publitsistik matnning axboriy mazmunini ifodalovchi rema xususiyati hamda gapning boshlang'ich nuqtasini ifodalovchi tema vazifasida kelishi va publitsistik matn doirasidagi evfemizmlarning tarjimada berilishi masalalari bilan bog'liq jihatlari tahlili natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Erasmus + dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-maydagi 954/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,

o'qituvchilarga tarjima jarayonida dastlab evfemizmlarni matn doirasida ajratish, so'ngra uning asl evfemistik ma'nosini aniqlash, va nihoyat, muqobil shaklini ;

diskursning aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa ekanligini hisobga olgan holda ingliz va o'zbek tillaridagi publisistik diskursda evfemizmning temporallik kategoriyasi doirasidagi monotemporal va politemporal xususiyatlari, lokallik kategoriyasi doirasida namoyon bo'ladigan avtosemantik va sinsemantik belgilari hamda ularning shaxs-son kategoriyalarida faollashuviga oid olingan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Evropa Ittifoqining "TEMPUS" dasturi Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European LanguageS: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" mavzusidagi tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 8-maydagi №955/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarni o'qitishda hamda mazkur amaliy loyiha bo'yicha elektron resurslar, bosma darslik,dissertasiyaning ingliz va o'zbek tillari publisistik diskursda evfemizmlarning lisoniy voqelanishi ijtimoiy, axloqiy, etnik, madaniy va psixologik me'yorlar bilan bog'liqligining yoritilishi, o'rganilayotgan tillar publisistik diskursda evfemizmlarning grammatik, leksik va semantik sathlarida shakllanish usullari, nutq bo'laklari vazifasida faollashuvi bilan bog'liq xulosa va natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Evropa Ittifoqining Erasmus+dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2028-yil 8-maydagi №953/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida shakllantirilgan modullar kontenti ingliz va o'zbek tillaridagi publisistik diskursda evfemizmning lisoniy voqelanishiga oid ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Mazkur tahlillar orqali publisistik matn doirasidagi evfemizmlarning tarjimada berilishi masalalari o'rganilib, tarjima jarayonida dastlab ularni matn doirasida ajratish, so'ngra uning asl evfemistik ma'nosini aniqlash va nihoyat muqobil shaklini tanlashga oid tavsiyalar shakllantirilgan va lisoniy birliklarni yaxlit tahlil qilish amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Evfemizm hodisasining matn doirasida voqelanishi”** deb nomlangan birinchi bobi evfemiya hodisasining talqini va tadqiqi, lisoniy vositalar yordamida ifodalanishi hamda poetik diskurs va uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan.

Uzoq vaqt davomida evfemizm stilistika, kognitiv tilshunoslik, soslolingvistika, shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlarning predmeti bo'lib kelgan. “Evfemizm” atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, “yaxshi gapirmoq” ma'nosini bildiradi. Ushbu hodisaning tarixi tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan va “evfemizm” atamasi hali paydo bo'lmagan paytdan boshlagan, ammo mazkur tushuncha (yumshatuvchi va noo'rin, qo'pol so'z o'rnini bosuvchi ifoda sifatida) antik davr – notiqlik san'ati maktablarining gullab-yashnashi davrida allaqachon paydo bo'lgan.

Hozirgi vaqtda evfemiya hodisasi talqinida tor va keng yondashuvlar mavjud. Tor yondashuv doirasida evfemizmlarni so'zlovchi tomonidan taqiqlangan (tabu) so'zlar o'rniga ishlatiladigan so'zlar yoki iboralar sifatida belgilanadi⁶. A.A. Reformatskiyning so'zlariga ko'ra, evfemizmlar tabu so'zlarga (iboralarga) alternativ sifatida ishlatiladigan so'zlar yoki iboralardir⁷. “Tabu” so'zi Polineziyaning tonga tilidan olingan bo'lib, “man etmoq, taqiqlamoq” ma'nosini bildiradi. Bu diniy, irim yoki noxushlik nuqtayi nazaridan taqiqlashdir⁸. Masalan, diniy jihatdan qo'lni yuvgandan keyin silkitish man etiladi. Bu tabudir. Yoki ostonada o'tirish, kech payti tirnoq olish, supurgini tik qo'yish kabi irimlarga asoslangan etnografik tabular ham mavjud. Tabu ikki turga bo'linadi: etnografik va lingvistik.

N. Ismatullayevning ta'kidlashicha, ayrim tilshunoslar tabudan yondosh hosilalarni ajrata olishmaydi⁹. Ya'ni tabudan tashqari, muloqot jarayonida hamsuhbatga nojo'ya ta'sir uyg'otmaslik maqsadida “tiyiladigan” so'zlar ham mavjud bo'lib, bular tabuga o'xshash biroq, diniy, irim, siyosiy jihatdan taqiqlanmagan lug'aviy birliklardir. Masalan, “*aldoqchi*” so'zi salbiy mazmunni

⁶ Булаховский Л.А. Табу и эвфемизмы // Введение в языковедение. – ч. 2. – Лексикология – М.: Учпедгиз, 1953. – С. 50-54; Варбот Ж.Ж. Табу // Русский язык. Энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия, 1979. – С. 345-346; Реформатский А.А. Введение в языковедение. – 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2005. – 536 с.

⁷ Реформатский А.А. Введение в языковедение. – 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2005. – С. 51.

⁸ Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 14.

⁹ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – С. 6.

beradi, uning evfemistik shakli “*to‘quvchi*” bo‘lishi mumkin. Biroq, ushbu so‘z tabu hodisasi hisoblanmaydi.

Keng yondashuv doirasida evfemizmlarga tabu nomlari o‘rnini bosuvchi hamda “ma’lum sharoitlarda nomaqbul, odobsiz, juda qattiq so‘zlarni almashtirish uchun” ishlatiladigan so‘zlar va iboralar kiradi¹⁰. Mazkur tadqiqot evfemizmlarni tushunishda keng yondashuvga amal qiladi. Darhaqiqat, evfemizmni faqat tor yondashuv doirasida tushunish noto‘g‘ri, chunonchi, evfemiya faqat tabuga uchragan so‘zlarni boshqa ma’noda atash bilan chegaralanib qolmaydi. Ushbu hodisaning ishlatilish doirasi ancha keng.

O‘zbek tilshunosligida evfemizmlar asosan XX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganila boshlandi. Masalan, birinchi tadqiqot N.Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar”¹¹ nomli nomzodlik dissertasiyasi bo‘lgan. A.Omonturdiyevning tadqiqotlari chorvadorlar nutqidagi evfemizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, u hayvon suyaklarini ifodalovchi evfemizmlarni ham qamrab oladi. Keyinchalik muallif “Kasbiy nutq evfemikasi”, “O‘zbek evfemik nutqi asoslari” nomli monografiyalarini nashr etdi¹².

M. Mirtojievning “O‘zbek tili semasiologiyasi”¹³ nomli kitobida evfemizm mavjud so‘zga yuklangan hosila ma’no sifatida qaraladi. Evfemizm atamasini aniqlashda muallif “nomlash” so‘zini ishlatadi. U evfemizmni qayta nomlash deb tushunmaslik kerak, deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu tilda mavjud bo‘lgan qo‘pol mazmundagi so‘zga evfemistik ma’no berishdir. Efemizm – bu tilda mavjud bo‘lgan so‘zning qo‘shimcha ma’nosi hisoblanadi, shuning uchun evfemiya semantik hodisadir¹⁴.

M.K. Hakimova evfemizmlarning madaniy xususiyatlarini o‘rganib, ularning yana bir jihati – so‘zlovchi mansub xalqning yuksak madaniyatidan, etnomadaniy-axloqiy me’yorlaridan darak beradi, degan xulosaga keladi. Misol uchun, “Katta yoshli odamning husni urib qolibdi” jumlasining o‘rniga “ulg‘ayibsiz” deb qo‘llash so‘zlovchining madaniyatli ekanligidan, o‘ziga munosib bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llamasligini namoyon etadi¹⁵.

Sh.S. Safarovning “Tilshunoslik terminlari lug‘ati”da evfemizm hodisasiga “qo‘pol ma’nodagi lisoniy birlik o‘rnida ishlatiladigan yumshoq mazmunli birlik”, degan ta’rif keltirilgan¹⁶.

¹⁰ Видлак С. Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля // Этимология. – М.: Наука, 1967. – С. 267-285; Кацев А.М. Эвфемизмы-неологизмы в английском языке // Лексическая семантика и фразеология Межвузовский сборник научных трудов МГПИ им. Герцена. – Л., 1987. – С. 64-74; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современной жизни // Русский язык конца XX столетия. – М.: Наука, 1996. – С. 142-161; Порохницкая Л.В. Культурологические и когнитивные принципы эвфемии в современном английском языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 2004. – 21 с.

¹¹ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 23 с.

¹² Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 23.

¹³ Mirtojiev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 b.

¹⁴ Mirtojiev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 120.

¹⁵ Hakimova M.K. O‘zbek tilida evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari // O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. – Toshkent, 2021. – B. 33.

¹⁶ Safarov Sh.S. Tilshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2023. – B. 100.

Shunday qilib, evfemizmlar kelib chiqishidan to hozirgi vaqtga qadar “yomon” alomatli soʻzlarni ishlatishdan qochishga yordam beradigan lisoniy vositalarni ifodalaydi. N.S. Arapova taʼkidlashicha, efemizmlar – bu soʻzlovchiga odobsiz boʻlib tuyuladigan sinonim soʻzlar yoki iboralar oʻrniga ishlatiladigan hissiy jihatdan neytral soʻzlar yoki iboralardir¹⁷.

Ispan tilshunosi Migel Kasas Gomes va rus tadqiqotchisi M.L. Kovshova evfemizmdni nutqiy harakat sifatida qabul qilishadi. Ushbu talqinni asoslashda ular evfemizmdni quyidagicha tavsiflashadi:

- nutqiy muloqotga yoʻnaltirilgan lisoniy omil;
- semantikasi soʻzlovchi va belgi, maʼno oʻrtasidagi munosabatlardan iborat boʻlgan nutq vositasi;
- muayyan harakatni amalga oshirish – nutqni yumshatish uchun ishlatiladigan vosita;
- metonimik jihatdan nutqiy harakat birligini bildiradi va birlik sifatida talqin etiladi;
- bilvosita, yashirin belgini ifodalash uchun ishlatiladigan soʻz yoki ibora¹⁸.

Tadqiqot doirasida evfemizmlar nutqning qaysi boʻlaklarini ifodalashi mumkinligini koʻrib chiqildi:

a) leksiko-grammatik vosita

Turli soʻz turkumlariga tegishli birliklar evfemizmdni sifatida ishlatilishi mumkin: ot, feʼl, sifat, ravish, olmosh.

Koʻpincha ot soʻz turkumiga xos evfemizmlarning semantikasi noaniq, umumlashtirilgan boʻladi. Masalan, “*urush*” soʻzi oʻrniga “*favqulotda vaziyat*”, ingliz tilidagi “*black*” soʻzi oʻrniga “*native American*”ning ishlatilishida aniqlik darajasining pasayishi tufayli semantik noaniqlik shakllanadi¹⁹.

Sifat soʻz turkumidagi soʻzlar ham evfemizmdni vazifasida kelishi mumkin: “*oʻgʻri*” – “*qoʻli egri*”, “*koʻr*” – “*koʻzi ojiz*”, “*semiz*” – “*toʻlacha*”, ingliz tilida “*glorious*” – “*mast odam*”, “*old*” – “*eldery*” va h.k.

Feʼllar, shuningdek, feʼlli birikmalar evfemizmdni sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, “*kech qolish*” – “*ushlanib qolish*”, “*oʻldirish*” – “*tinchitish*”, ingliz tilidagi “*to limit activities*” iborasi harbiy harakatni boshlashni bildiradi.

Oʻlchov va noaniq miqdoriy ravishlari evfemizmlar vazifasida yuqori foydalanish chastotasiga ega. Masalan, *ozgina*, *ozroqqina*, *ozginagina*. Ingliz tilida ham ravish soʻz turkumidagi evfemizmlar koʻp qoʻllaniladi: “*little or hardly*” va “*little meaningful, promise little good*”. Ushbu tuzilmalar ijobiy denotatni inkor etadi, ammo toʻgʻridan-toʻgʻri nomlanish sifatida qabul qilinmaydi.

¹⁷ Арпова Н.С. Эвфемизмы. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 590.

¹⁸ Ковшова М.Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь современных русских эвфемизмов. – М.: Гнозис. 2007. – С. 34-35.

¹⁹ Крысин Л.П. Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 888 с; Нефедова Л.А. К вопросу о манипулятивном использовании в повседневном общении косвенных высказываний // Вестник Тамбовского ун-та. – Сер. Гуманитарные науки. Вып. 4. – Тамбов, 1998. – С. 74-80; Шейгал Е.И. Эвфемизм и ирония в политическом тексте // Филология. Philologica. – Краснодар, 1997. № 11. – С. 47-49.

Har qanday salbiy predmet yoki hodisaning nomi evfemistik tarzda “u”, “bu”, “o’sha” olmoshlariga o’zgartirilishi mumkin. Ingliz tilida esa “it”, “this”, “that”, “he”, “something” olmoshlari har qanday tabulangan so’z va iboralar o’rnida qo’llanilishi mumkin.

Ko’pincha evfemizmlar sifat + ot, fe’l + ot, ot + ot kabi birikmalar yordamida ifodalanadi. Masalan, o’zbek tilida – “*nozik savollar*”, ingliz tilida – “*a sensitive topic*”, “*sensitive questions*” va h.k.

Evfemizmlar vazifasida frazeologizmlar ham faol qo’llaniladi. Frazeologik birlik evfemistik vazifani bajarishi uchun neytral yoki ijobiy bo’yoqdorlikka ega bo’lishi kerak²⁰. Masalan, ingliz tilidagi “*to call off the bets*”, “*to stand before one’s Maker*”, “*to talk to the old gentleman*” frazeologizmlari “o’lmoq” ma’nosini ifodalaydi.

b) sintaktik vositalar

Bu turdagi qurilmalar qatoriga, birinchi o’rinda, iboralarning o’zgartirilishi, ellipslarning qo’llanilishi (xususan, o’timli fe’llarning obyektiv ishlaltilishi va faol fe’l konstruksiyasini harakat subyektini tushirib qoldirish bilan passivga aylantirish: “*berish*” – “*pora berish*”), nomaqbul omilni tasdiqlash maqsadida ijobiy konstruksiyani ma’nosi o’xshash salbiy qurilma bilan (kerakli haqiqatni inkor etish bilan) almashirish kiradi.

Ommaviy axborot vositalari matnlarida muayyan siyosiy yoki ijtimoiy jarayonlar sharoitida jamiyatda ortib borayotgan bezovtalik, tashvish darajasini pasaytirish maqsadida, mualliflar ko’pincha iboralarni o’zgartirish usulidan foydalanadilar. Ushbu usul asl iborani o’zgartirish sohasidagi quyidagi hodisalar bilan tavsiflanadi: qo’shimcha ijobiy evfemistik elementni kiritish orqali salbiy mazmunni yoki bitta kontekstda ikkita qarama-qarshi komponentning to’qnashuvini (oksimoron) o’zgartirish. Masalan, “*yadro qurolidan cheklangan holda foydalanish*”. “*Yadro qurolidan foydalanish*” iborasining o’zi o’ta salbiy ma’noga ega, ammo ibora tarkibiga “*cheklangan holda*” birikmasi evfemistik ta’rifning kiritilishi kommunikatorga jamiyatdagi vaziyatni sezilarli darajada xavfli deb ko’rsatishga va tashvish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

v) so’z shakllanishi

Evfemizmnining inkor mazmunidagi so’zlar yordamida shakllanishi adresatning o’zini-o’zi qadrlashini ifoda etadi. Psixologik nuqtayi nazardan, inkor va so’zning ma’nosida antonim bo’lgan so’zning ishlaltilishi tinglovchiga kamroq salbiy ta’sir o’tkazadi. Ingliz tilida “not” inkor ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

*Sanitation (cleaning toilets and sewers with a special machine) is useful for freedom. However, it cannot be said that doing this work is pleasant*²¹.

Tarjimasi: *Assenizasiya (maxsus mashina yordamida hojatxona va kanalizasiyani tozalash) – ozodalik uchun foydali. Biroq bu ish bilan shug’ullanishni yoqimli, deb bo’lmaydi.*

²⁰ Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка: спецкурс: учеб. пособие. – Москва: Высшая школа, 2006. – С. 34-38.

²¹ <https://www.bbc.com/news/business-35305796>

Mazkur matnda muallif “*can not be said... is pleasant*” (yoqimli deb bo‘lmaydi) iborasi o‘rnida “*obnoxious*” (jirkanch) so‘zini ishlatga ham bo‘lar edi. Biroq, muallif o‘quvchiga salbiy ta‘sir kuchini kamaytirish maqsadida uning antonimi va inkor yordamchisidan foydalangan.

Ayrim hollarda evfemizmlar qo‘shma so‘zlar orqali ham ifodalanadi. Masalan, “*fat*” – “*overweight*”, “*hungry*” – “*undernourished*”.

g) stilistik shakllar

Metafora va evfemizmining o‘xshash jihatlari mavjud, ular ko‘chimning bir turi sifatida qaraladi. Ko‘pgina tilshunoslar metaforalarning evfemizmi vazifasida kelishini tahlil qilishadi²². Ma’nolarning metaforizatsiyasi qanday sodir bo‘lishini aniqlashga doir misol keltiramiz:

*Official Sees Kenyan Ethnic Cleansing... across Kenya in the past month has been **ethnic cleansing** intended to drive people from their homes, but that it should not be considered genocide*²³.

Ushbu misolda “*ethnic cleansing*” (etnik tozalash) metaforasi qo‘llanilgan. Oxford lug‘atida “*cleansing*” so‘zi “used to describe something that cleans or is used for cleaning” (tozalaydigan yoki tozalash uchun ishlatiladigan narsani tasvirlash mazmunida qo‘llaniladi) mazmunini ifodalashi belgilangan (<https://dictionary.cambridge.org/cleansing>). Shuni aytish joizki, “*cleansing*” so‘zi lug‘at ma’nolarining hech birida odamlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, mazkur matnda “*etnik tozalash*” iborasi ostida “aholini etnik jihatdan tozalash”, ya’ni boshqa etnik guruhga mansub odamlarni haydash, yo‘q qilish nazarda tutiladi. Shu o‘rinda, “*cleansing*” – “tozalamoq” so‘zi “haydash”, “yo‘q qilish” iboralariga nisbatan yumshoqroq nutqiy ifodaga ega.

O‘zbek tilida misol:

*“Qora bozor”ga valyuta ayirboshlashga qonuniy ruxsat beriladimi? Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurodov javobi*²⁴.

Ushbu sarlavha daryo.uz sayti nashriga tegishli. “*Qora bozor*” metaforasi “noqonuniy tovar va xizmatlar munosabati yuzaga keladigan ijtimoiy maydon”ni anglatadi²⁵. Biroq, mazkur matnda u evfemistik vazifani bajarmoqda.

Evfemizatsiya hodisasi mazmunni qarama-qarshi ma’noga o‘zgartirish, ya’ni antonim so‘zning ishlatilishi orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu usul ommaviy axborot vositalari matnlarida faol qo‘llanilib, bunda salbiy ma’no teskari mazmundagi so‘z bilan almashtiriladi. Matnda istehzoli yoki oshkora kontekst bo‘lmasa, matn ma’lum bir jamoatchilik fikrini yaratish uchun keng

²² Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ (на материале русского и английского языка). Автореф. дис... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 23 с; Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. – 20 с; Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия: Учебное пособие к спецкурсу. – Л: Изд-во ЛГУ, 1988. – 80 с; Крысин Л.П. Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. – М: Языки славянской культуры, 2004. – 888 с; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Волгоград: Ленанд, 1999. – 360 с.

²³ <https://www.nytimes.com/2008/01/31>

²⁴ <https://daryo.uz/2023/10/27>

²⁵ <https://kun.uz/uz/>

jamoatchilikka ta'sir qilish vositasiga aylanadi. Masalan, ingliz tilida "attack" (hujum) so'zi o'rnida "defence" (himoya) leksemasi ishlatiladi:

*Air defense operations include all defensive measures designed to destroy attacking enemy aircraft or missiles in the Earth's envelope of atmosphere*²⁶.

Mazkur misoldagi "air defense" (havo himoyasi) iborasi "air attack" (havo hujumi) o'rnida ishlatilgan.

Ko'pincha, maqolalar mualliflari salbiy mazmundagi so'zni yumshatish maqsadida butun konstruksiyalardan foydalanishadi: "o'lmoq" – "olamni tark etmoq", "haydamoq" – "ishdan bo'shatmoq", "yutqazmoq" – "muvaqqiyatsizlikka uchramoq", "make war" – "protective reaction". Misol:

*O'yin davomida ko'plab hujumlar tashkil etdik, biroq vaziyatlarda biz muvaqqiyatsizlikka uchratik*²⁷.

Ushbu misollar tahlilidan, denotat va ikkilamchi nominasiyaning umumiy xususiyatlariga qaramay, perifrazalar denotatni o'zgartirishga va salbiy mazmunni "tekislashga" moyilligini tushunish mumkin.

Ba'zan antifraza hodisasi ham evfemistik ma'noni ifodalash maqsadida ishlatilishi mumkin:

*Voy-bo'y, buncha yoqimli bu hid! Bu yerni axlatxonaga aylantirishibdi-ku!*²⁸.

Evfemizmi voqelantiruvchi yana bir hodisa meyozi deb ataladi. Uslubshunoslar ta'kidlaganidek, mazkur trop predmet, hodisa, jarayon xususiyatlarining (belgilarining) intensivligini kamaytiradi. Murojaat nutqida ishlatiladigan meyotik evfemizmlar denotatga xos bo'lgan salbiy mohiyatni sezilarli darajada yumshatishga va tahdid kuchini kamaytirishga qodir. Biroq, bu turdagi evfemizm neytral ma'noni ifoda etib, resipient tomonidan noto'g'ri qabul qilinishi ham mumkin. Mazkur ifoda uslubi tinglovchilar hissiyotlariga ta'sir o'tkazmaydi, maqolani o'qib, o'quvchi hissiy-baholovchi ta'sirni sezmasligi mumkin. Meyozis – bu ma'lum tavsifni madaniy tarzda, xushmuomalalik bilan kichraytirib, kamaytirib ifodalovchi vositadir. Masalan:

*At the end of 2005, 24, 1% of Peru's children of 5 years of younger suffer from **malnutrition** according to the latest demographic survey by Salud Familiar. "The high rate of **undernourished** children is evidence that most of the population has little knowledge of nutritional culture", said Victoria Chimen, dean of the Peru's School for nutritionist*²⁹.

Ushbu misoldan ko'rinishicha, muallif "hunger" (ochlik), "hungry" (och) so'zlarini to'g'ridan-to'g'ri ishlatishdan qochadi va meyotik evfemizmlardan foydalanib, xabarga xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlariga xos bo'lgan neytral taqdimot uslubini beradi. Bunday axborot taqdimoti uslubi o'quvchilar va tinglovchilarning g'azabiga sabab bo'lmaydi, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazilmaydi, chunki maqolada xabar oluvchida yorqin his-tuyg'ularni uyg'otadigan hissiy baholovchi so'z yo'q, ya'ni u neytrallashtirilgan.

²⁶ <https://www.globalsecurity.org/military>

²⁷ <https://ufa.uz/terma-jamoaga-chaqiruv>

²⁸ <http://www.tarbiya.uz>

²⁹ <http://archive.peruthisweek.com/news>

Giperbola – narsa, hodisa va jarayonlarning belgi-xususiyatini yoki holatini o‘ta bo‘rttirib tasvirlashdir³⁰. Nutqda urg‘u bo‘rttirish yoki xabarning ta’sir kuchini oshirish maqsadida ishlatiladi:

*“Hayolimda juda ko‘p fikrlar bor edi. Bunday paytlarda o‘zingizni qanday his qilayotganingizni tushuntirish qiyin. Men bu orzuyim uchun **butun umr** kurashdim. Bu nafaqat mening, balki oilam, yaqinlarim va **butun Argentinaning** maqsadi edi. Finaldan so‘ng o‘zimga: “Men **hamma narsani yutdim**”, dedim. Kubokni ko‘rib, bizniki ekanligiga ishonolmadim. Men tezroq qo‘limga olishga oshiqdim” deydi Messi³¹.*

Nazariy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, evfemiya ko‘pqirrali hodisadir. Ko‘pgina mualliflar evfemizmlar – salbiy denotatni almashtirishga xizmat qiladigan so‘zlar yoki iboralar ekanligini ta’kidlashgan.

Ma’lumki, publitsistik diskursda asosan hukumat vakillari harakatlari, shuningdek, mahalliy va xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar borasidagi yangiliklar, tahlillar va munosabatlar ifoda topadi. Sh.S. Safarov ta’kidlaganidek, “evfemizmlar siyosiy hukumat boshqaruvi, xalqaro munosabat sohalariga oid diskurslarda tez-tez uchrab turadi”³². Hozirgi paytda evfemizmlarning kognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish dolzarblashib bormoqda.

Publitsistik uslubning morfologik xususiyatlarini belgilovchi yetakchi tendentsiya – bu matnlar taqdimotning qisqaligi va soddaligiga intilishdir. Ushbu xususiyatlar ergash gaplar o‘rniga kesimli, infinitiv va sifatdash iboralaridan foydalanish chastotasiga bog‘liq³³.

Ifoda ta’siri vazifasini belgilovchi publitsistik uslubning sintaksisi esa, matnda ellipsis, ajratuvchi va bog‘lovchi tuzilmalarning qo‘llanilishini aniqlashga qaratiladi³⁴.

Publitsistik uslubning tarkibi mantiqiy tamoyilga, shuningdek, ekspressivlik talabiga bo‘ysunadi. Shunday qilib, ushbu uslub ma’lumotni tanlab va hissiy jihatdan baholash, nutqning aniqligi, dalillanganlik, xabar, yangilik, qisqalik, ixchamlik, semantik soddalik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Leksik tarkib sohasida publitsistik uslub kitobiydan so‘zlashuvgacha bo‘lgan leksemaning keng doirasi, mavhum leksemaning ustunligi, hissiy baholovchi va ifodali leksema, evfemizmlar va neologizmlarning keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Morfologiya sohasida ushbu uslub kesim, infinitiv va imperativ fe’l shakllaridan, shuningdek, shaxs olmoshlaridan keng foydalanish bilan ajralib turadi. Kompozitsiya nuqtai nazaridan matnlar mantiqiy, shaffof va tafakkurning hissiy tabiatida farqlanadi.

³⁰ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1974. – B. 30.

³¹ <https://qalampir.uz/news/zhahon-chempionligi>

³² Safarov Sh.S. Tilshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2023. – B. 100.

³³ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. – 295 с; Знаменская Т.А. Стилистика английского языка. – М: Эдиториал УРСС, 2002. – 208 с.

³⁴ Швейцер А.Д. Введение в социолингвистику. – М: Высшая школа, 1978. – 216 с; Знаменская Т.А. Стилистика английского языка. – М: Эдиториал УРСС, 2002. – 208 с.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Publitsistik matn tizimida evfemizmlarning voqelanishi”** deb nomlangan. Mazkur bobda matnning zamon, makon va shax kategoriyalari tizimida evfemizmlarning faollashuv shart-sharoitlari o‘rganilgan.

Publitsistik diskursda temporallik deyksisi nutq vaziyatiga nisbatan voqea-hodisalarning belgilangan vaqti yoki davomiylik davrini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. G‘. Mirsanov ta’kidlaganidek, temporallik deyksisi zamon va vaqt bilan aloqador bo‘lgan, ya’ni voqea-hodisalarda ishtirok etadigan barcha vaqt munosabatlarida belgilanadi³⁵.

S. Boymirzayevaning ta’kidlashicha, temporallikni ifodalovchi vositalarni qo‘llashda so‘zlovchi, albatta, ma’lum kommunikativ maqsadni ko‘zlaydi va shu maqsadni amalga oshirish jarayonida u shakllanayotgan mazmunni aniq nutqiy vaziyatga moslashtirish, muqobillashtirishga harakat qiladi³⁶.

Matnning zamon kategoriyasini tashkil qilishda, evfemizmlar yordamida shakllangan o‘rin holi ham muhim rol o‘ynaydi. O.I. Moskalskaya avtosemantik va sinsemantik o‘rin holatlarini farqlash muhimligini ta’kidlaydi. Avtosemantik hollar so‘zboshiga tayanishi shart emas va mutlaq ahamiyatga ega. Vaqtning sinsemantik hollari matndan alohida holatda mazmunga ega bo‘lmaydi va ma’lum bir nuqtaga nisbatan vaqtni bildiradi³⁷.

Zamon kategoriyasi tadqiqida monotemporal va politemporal matnlarni farqlash muhimdir. M.N. Levchenko ushbu matnlar orasidagi tafovutni quyidagicha belgilaydi:

– monotemporal matn makromatnning uyg‘unligini ta’minlaydi, haqiqiy olam va matn olami o‘rtasida to‘siq ta’sirini yaratadi, o‘quvchini voqealarga (prezens) jalb qiladi hamda kuzatuvchining pozitsiyasini yaratadi (preterit);

– politemporal matn vaqt uzluksizligini ifodalaydi, retrospektiv va prospektiv munosabatlarni yaratishda ishtirok etadi, lirik kayfiyat baxsh etadi hamda boshqa vaqt shakliga o‘tishda o‘quvchi e’tiborini jamlaydi³⁸.

Evfemizmlarning matnning zamon kategoriyasini shakllantirish xususiyatlarini tavsiflash uchun misol sifatida inglizcha “Guardian” gazetasidan matn parchasini olamiz:

What price for our papers in tough times?

Thus, the FT got its “do-nothing” Budget. The Indy saw a “lackluster” assemblage of “micro measures”. The Times hailed “a welcome dose of dullness for a British economy in these too interesting times”. The Mirror declared that “stability is the new prudence”. No Fleet Street voice, apart from the usual suspects, got mad.

All of which means that two years of bad economic medicine (and not some telephone call from a proprietor far away) will decide how swing newspapers

³⁵ Mirsanov G‘. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2018. – B. 23.

³⁶ Boymirzayeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. – Toshkent, “O‘zbekiston milly ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – B. 94.

³⁷ Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981. – 183 с.

³⁸ Левченко М.Н. Темпорально-локальная архитектура художественных текстов различных жанров: Дис... док. филол. наук. – М., 2003. – 449 с.

vote come **2009 – or, more likely, 2010**. Rupert Murdoch, in particular, is still sitting on his hands, while the real questions for journalists start rather closer to home.

... Dull? Yes. But reined back to reflect that sorry state? Unhappily not. Which leads to the most difficult point. If readers face difficult choices, many things, including the price of papers, will also be under scrutiny. **Over five years**, some papers, such as the Mail, have only shifted from 40p to 45p on weekdays. But the Mirror was 32p in 2003; it's 40p today. The Telegraph and Guardian were 55p; update to 80p (like the Indy). The FT was £1, today it's £1.50p³⁹.

Maqola sarlavhasi “*Mushkul paytlarda qimmatli qog‘ozlarimiz narxi qancha?*” deb nomlangan bo‘lib, unda “*in tough times*” (“*mushkul paytlar*”) evfemizmi qo‘llanilgan. Matndagi evfemizm sinsemantik vaqt belgisidir. Grammatik jihatdan sifat va ot birikmasi yordamida shakllangan. “*Mushkul paytlar*”da muallif narxlar sezilarli darajada oshgan paytlarni nazarda tutmoqda. Muallif misol sifatida gazeta va jurnallarning narxlarini keltiradi: *But the Mirror was 32p in 2003; it's 40p today. The Telegraph and Guardian were 55p; update to 80p (like the Indy). The FT was £1, today it's £1.50p.*

Shuni ta’kidlash kerakki, evfemizm so‘roq gap tarkibida ishlatilgan, mos ravishda maqola bu savolga o‘ziga xos javob bo‘ladi, shuning uchun evfemizm nafaqat vaqt belgisi, balki maqolaning kommunikativ yaxlitligi uchun muhim komponent hisoblanadi. Bu maqolaning asosiy g‘oyasini shakllantirishga va uning zamon shakli birligini buzmaslikka yordam beradi. Ushbu maqolada temporallik belgilar nafaqat evfemizm, balki boshqa leksemalar yordamida ham shakllanib, evfemizm ta’sirini kuchaytirishga ko‘maklashgan: “*in these too interesting times*” – “*o‘sha ajib zamonlarda*”, “*two years of bad economic*” – “*ikki yillik yomon iqtisodiyot*”, “*2009 – or, more likely, 2010*” – “*2009 yoki ehtimol 2010*”, “*over five years*” – “*besh yildan ziyod*”, “*Thursday morning*” – “*Payshanba tongi*”, “*the next few years*” – “*keyingi bir necha yillar*”. Ushbu leksemalar evfemizmni to‘ldiradi, matnning asosiy semantik va tarkibiy temporallik belgisi sifatida “*mushkul paytlar*” tushunchasiga batafsilroq ma’lumotlarni kiritadi.

Aniqlanishicha, matn uchun eng muhim xususiyat – avtosemantik va sinsemantik holatlar bo‘lib, ular evfemizmlar yordamida ham ifodalanishi mumkin. Avtosemantik holatlar ko‘pincha hodisaning aniq geografik joylashuviga ishora qiladi, o‘z navbatida, sinsemantik holatlar ma’lum bir nuqtaga nisbatan joyni ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida, evfemizmlarning publitsistik matn makon kategoriyasini shakllantirishdagi roli aniqlandi. Tahlil matni elektron “O‘zbekiston milliy axborot agentligi” veb-sahifasidan olindi:

Orol dengizi halokati mintaqaning murakkab muammosidir

Orol bo‘yi suv havzalarida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlanar, Amudaryo va Sirdaryo deltalaridagi unumdor yerlar, yuqori samarali yaylov va

³⁹ <https://www.theguardian.com/media/2008/mar/16/>

*suv havzalari millionlab odamlarning chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va qishloq xo'jaligi sohalarida ish bilan bandligini ta'minlardi. O'zbekiston uchun eng murakkab muammolardan biri Orol dengizining ekologik halokati va ushbu ofat oqibatida yuzaga kelgan aholi genofondi va salomatligi, turmush sharoiti va darajasi, Orolbo'yining o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq o'tkir muammolardir*⁴⁰.

Mazkur maqola sarlavhasida ikkita makon kategoriyasini ifodalovchi evfemizmlar ishlatilgan: “*Orol dengizi halokati*” va “*mintaqaning murakkab muammosi*”. Grammatik jihatdan evfemizm otli birikmalar yordamida shakllangan. Muallif “*Orol dengizi halokati*” evfemizmi ostida dengizning qurib borishi, suvsizlanishi, qurg'oqchilikni nazarda tutmoqda. Ushbu halokat “*mintaqada murakkab muammolar*”ni keltirib chiqarmoqda, ya'ni iqtisodiy, ekologik tanqisliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda: “*...millionlab odamlarning chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va qishloq xo'jaligi sohalarida ish bilan bandligini ta'minlardi. ...aholi genofondi va salomatligi, turmush sharoiti va darajasi, Orolbo'yining o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq o'tkir muammolardir*”. Matn davomida muallif qaysi hudud haqida gap ketayotganligini oydinlashtirgan: “*Orol bo'yi suv havzalari*”, “*Amudaryo va Sirdaryo deltalari*”, “*O'zbekiston*”.

Shuni ta'kidlash joizki, publitsistik matnlar xususiyatlariga ko'ra turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan, maqola, reportaj, sharh, qisqa xabar va boshqa matn turlari mavjud. Shu sababli publitsistik matn bo'limlari maqsad-mohiyatiga ko'ra, matnda turli lisoniy unsurlar yordamida ifodalanadi. Jumladan, siyosat sohasidagi matn strukturasi moliya-iqtisod yoki sport sohaları matnidān tubdan farq qiladi. Aynan mana shu mezonlar asosida publitsistik diskursda shaxs kategoriyasini tadqiq qilish lozim.

Tahlil uchun “The Guardian” gazetasidan matn parchasini olamiz:

Stand by, Wall Street – all the numbers are about to go red

*Mervyn King, the governor of the Bank of England, expressed surprise just under a month ago that the stock market had been rising since August, despite the “stresses and strains” of the credit crunch. “There must be some downside risks from that ... I think it's that sort of risk which is the bigger risk to the world economy than the narrower one focused on the banking sector,” he said at the time*⁴¹.

Maqola sarlavhasida “*numbers are about to go red*” (“raqamlar hijolatda”) evfemizmi qo'llanilgan bo'lib, u shaxs kategoriyasini ko'rsatmoqda. “*Raqamlar hijolatda*” evfemizmi harakat obyekti bo'lib, fe'lning III shaxs ko'plik shakli yordamida faollashgan. Grammatik jihatdan evfemizm ot va fe'l so'z turkumlari birikmasi yordamida ifodalangan. Maqola davomida harakat obyekti jamlovchi otlar yordamida, ya'ni III shaxs birlik shaklida ifodalangan: “*the stock market had been rising*”, “*despite the “stresses and strains” of the credit crunch*”, “*the bigger risk to the world economy*”.

⁴⁰ <https://uza.uz/uz/posts/orol-dengizi>

⁴¹ <https://www.theguardian.com/business/2007/dec/09>

Maqolaning nutq subyekti boshqa shaxslar orqali ifodalanganligini kuzatish mumkin: *“Mervyn King expressed surprise”* – III shaxs birlik shakli, *“I think”* – I shaxs birlik shakli, *“he said”* – III shaxs birlik shakli.

Publitsistik matnlarda evfemizmlar otlar yoki fe'l va ot birikmalari bilan ifodalanadi, unda fe'lning shaxs-son qo'shimchasi ham matnning shaxs kategoriyasi tuzilishini aniqlashga ko'maklashadi. Shuningdek, shaxs kategoriyasi doirasida evfemizmlar o'zlashma so'zlar yordamida voqelanishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Publitsistik matnda evfemizmlarning kommunikativ xususiyatlari shakllanishi”** deb nomlangan. Ushbu bobda evfemizmlarning anaforik va kataforik vazifalari hamda publitsistik matnda evfemizmlarning tema va rema xususiyati tahlil qilingan. Shuningdek, publitsistik matn doirasidagi evfemizmlarning tarjimada berilishi masalalari ko'rib chiqilgan.

Aniqlanishicha, evfemizmlar matnni tashkil etuvchi jumlar orasidagi chap (anaforik) va o'ng (kataforik) bog'lanishlarda faol ishtirok etadi. Bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotlar anaforik munosabatlar muammolariga bag'ishlangan, xususan, anafora faollashuvining o'ziga xos xususiyatlari⁴²; ingliz va fransuz tillari materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar⁴³; anafora semantikasiga oid muammolar⁴⁴; anaforik birikmalar muammolari⁴⁵; anaforaning korreferentlik belgisi⁴⁶.

D.A. Kiselevning ta'kidlashicha, anaforik birliklar nafaqat alohida so'z va birikmalarni ifodalashga xizmat qiladigan shakl va ma'no hosil qiluvchi elementlar, balki matnning yaxlitligini ta'minlashda, shuningdek ko'rib chiqilayotgan matnni intertekst bilan bog'lashga xizmat qiladi⁴⁷.

Anaforik aloqa belgilanmagan bo'lib, keyingi komponentning oldingisiga oddiy ulanishini ta'minlaydi. Ikki komponent anaforik tarzda ulanganda, ikkinchisi birinchisi orqali talqin qilinadi. Anafora kommunikativ jihatdan retrospektivdir va predikasiya mavjudligini bildiradi.

Sh.S. Safarovning ta'kidlashicha, anafora nutqiy tuzilma bo'laklarining mazmunan bog'lanishini ta'minlaydi, u koreferentlik haqida ma'lumot beruvchi lisoniy hodisadir⁴⁸.

Birinchi xususiyatga ko'ra, anaforlar quyidagilarga bo'linadi:

⁴² Кибрик А.А. Типология средств оформления анафорических связей. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1988. – 20 с.

⁴³ Cornish F. Anaphoric relations in English and French. A discourse perspective. – New Hampshire, 1986. – 485 p.

⁴⁴ Богуславская О.Ю. О семантике анафоры // Формальное представление лингвистической информации. – Новосибирск, 1982. – С. 64-84; Дикарева С.С. Семантика анафоры // Структурная и прикладная лингвистика. – Ленинград, 1987. Вып. 3. – С. 30.

⁴⁵ Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике. // Информационные вопросы семиотики, лингвистики и автоматического перевода. Вып. 8. 1976. – С. 102.

⁴⁶ Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – В. 118.

⁴⁷ Киселев Д.А. Анафорические единицы как средство организации текста // Вестник Башкирского университета. 2011. Т. 16. №3. – С. 728.

⁴⁸ Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – В. 186.

– *otli anaforalar*. Bunday holda, anafora va antesedent (old referent) nominal ibora bilan ko‘rsatiladi. Anaforik munosabatlarni olmoshlar, atoqli otlar va refleksiv olmoshlar orqali ifodalash mumkin;

– *fe’lli anaforalar*. Fe’lli ibora yoki fe’l bilan ifodalanadi⁴⁹.

Dissertasiyamizning mazkur qismida matnning semantik birligini tashkil etishda evfemizmlarning ishtirok darajasini aniqlash va ularning anaforik vazifasini belgilash maqsadi ko‘zlanmoqda.

Misol uchun AQShning sobiq prezidenti Donald Trampning 2017-yil 25-iyuldagi nutqini olamiz:

Trump's Boy Scouts Speech

Apart from using “hell” in front of an audience of thousands of minors, Trump did not stick to that promise. His speech quickly became political.

*“You know, I go to Washington,” Trump said, “and I see all these politicians, and I see the **swamp**, and it’s not a good place. In fact, today, I said we ought to change it from the word “**swamp**” to the word “**cesspool**” or perhaps to the word “**sewer**”.*

Not exactly the message of how to affect constructive change through politics. Trump was just getting warmed up⁵⁰.

Matnning ushbu parchasida Tramp siyosatchilarni tasvirlash uchun “**swamp**”, “**cesspool**”, “**sewer**” kabi so‘zlardan foydalanadi: “*You know, I go to Washington,” Trump said, “and I see all these politicians, and I see the **swamp**, and it’s not a good place*” (“Bilasizmi, men Vashingtonga boraman”, dedi Tramp, “va men o‘sha siyosatchilarning barchasini ko‘raman va botqoqlikni ko‘raman va bu yaxshi joy emas”). Keltirilgan matn parchasida u ma’lum shaxslarning ismini keltirmasdan, ularning hammasini “**swamp**” (botqoqliklar) deb ataydi.

O‘smirlar qarshisida bayonot qilar ekan, u o‘zini qanchalik “kuchli” notiq ekanligini, erkinligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada evfemizm bir necha bor takrorlanadi, u anafora vazifasini bajaradi, chunki u tinglovchini oldingi jumлага “qaytaradi” va ular ushbu maqola siyosatchilar haqida ekanligini tushunadi: *I see all these **politicians**, and I see the **swamp**, and it’s not a good place.*

Tramp hatto bu evfemizmi ijobiy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar bilan almashtirish mumkinligini tushuntiradi: *In fact, today, I said we ought to change it from the word “**swamp**” to the word “**cesspool**” or perhaps to the word “**sewer**”.*

Tarjimasi: *Men haliyam “**botqoqlik**” deb aytdim, aslida “**chiqindi o‘rasi**” yoki “**kanalizasiya**” deyishim ham mumkin edi.*

Mazkur jumlada anaforik evfemizm ot so‘z turkumi bilan ifodalangan. U matnda bir necha marotaba takrorlanadi va sinonim leksik qator bilan almashtiriladi, shuningdek, ushbu maqola mazmunining yaxlitligini, ya’ni matnning semantik birligini ta’minlaydi. Stilistik jihatdan evfemizm metafora bilan ifodalangan.

⁴⁹ Yan Huang. *Anaphora: A cross-linguistic study*. – Oxford: Oxford University Press. 2000. – 396 p.

⁵⁰ <https://www.wyomingpublicmedia.org/2017-07-25/>

Kataforik aloqa belgilangan hisoblanadi, matnda ikkinchi komponentning qo'shilishi birinchisi bilan shartlanadi. Kataforik aloqa birikkan komponentlar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyati haqida ma'lumot beradi. Kataforik aloqa tushuntirish aloqasiga ko'proq o'xshaydi. Kataforada birinchi komponent ikkinchisining ko'rinishini taxmin qiladi. Katafora ham istiqbolli yo'nalishga ega va keyingi axborot mavjudligini ko'rsatadi.

Publitsistik matnlarning sport mavzusidagi nashrlarida "yutqazdi" so'zining ishlatilishi salbiy ta'sirni tez uzatishga xizmat qiladi. Biroq, ba'zan muallif jamoa yoki ma'lum sportchining nomini pasaytirmaslik, o'quvchiga keskin ta'sir o'tkazmaslik maqsadida "g'alaba qozona olmadi", "o'rnini berdi", "mag'lubiyatga uchradi", "jamoaga ko'z tegdi", "yenga olmadi", "g'alabasiga bir bahiya qoldi" kabi evfemistik so'z va iboralarni ishlatishi mumkin. Misol sifatida kun.uz saytining 2018-yil 12-sentyabrda sport mavzusidagi nashridan parcha olamiz:

O'zbekiston yana g'alaba qozona olmadi

Bugun, 11 sentyabr kuni O'zbekiston milliy terma jamoasi Toshkentda Eronga qarshi navbatdagi o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazdi. O'yin eronliklar hujumchisi Mahdiy Turobiyning 67-daqiqada urgan goli evaziga mehmonlarning 1:0 hisobidagi g'alabasi bilan yakunlandi.

Shu tariqa, Ektor Kuper qo'li ostidagi jamoa o'z antirekordini yangiladi. O'zbekiston terma jamoasi qatorasiga o'ninchi o'yinda g'alabaga erisha olmadi. Oxirgi marta 2017-yilning yozida Tailandni yenggan jamoa, shundan keyin 3 marta durang o'ynab, 7 marta yutqazgan⁵¹.

Ko'rib turganimizdek, muallif O'zbekiston jamoasining nomiga putur yetkazmaslik maqsadida "yutqazdi" so'zini ishlatmasdan, uning o'rniga "g'alaba qozona olmadi", "mehmonlarning (Eron terma jamoasi) 1:0 hisobidagi g'alabasi bilan yakunlandi", "g'alabaga erisha olmadi" kabi evfemistik birikmalardan takroriy tarzda foydalangan. "Yutqazdi" salbiy ma'nosidagi so'z aksariyat hollarda uning antonimik shakliga inkor (g'alaba qozona olmadi, g'alabaga erisha olmadi) so'zni qo'shish yordamida mazmunan yengillashtirilgan.

Xullas, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida Ye.V. Samoxvalova tomonidan aniqlangan kataforik aloqani amalga oshirish mumkin bo'lgan vositalar publitsistik matnda ham faol qo'llaniladi⁵². Shuningdek, kataforik evfemiya asosan dastlab matn sarlavhasida shakllanadi. Matnning keyingi qismida u dekodlanadi. Grammatik jihatdan kataforik evfemiya asosan ot va otl birikmalar yordamida, stilistik jihatdan metafora yoki iboralar yordamida shakllanadi.

O'zbek tili publitsistik matnlari yuzasidan olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, aksariyat hollarda salbiy mazmundagi so'zlar:

⁵¹ <https://kun.uz/074780>

⁵² Самохвалова Е.В. Катафорическая референция как средство реализации когезии в тексте: Дис... канд. филол. наук. – М., 2015. – 169 с.

1. ularning antonimik shaklining inkor mazmundagi soʻz bilan birga berilishi;

2. koʻrsatish olmoshlari bilan almashtirilishi;

3. gumon soʻzi bilan birga kelishi;

4. tasdiq (masalan “yo‘q” soʻzi oʻrnida – “*ehtiyot bor*”) va modal (masalan “yo‘q” soʻzi oʻrnida – “*bo‘lishi kerak*”) soʻzlar bilan kelishi natijasida mazmunan yengillashtirilishi mumkin.

Shunday qilib, evfemizmlar matnda katafora vazifasini bajarishi va keyingi kontekstning koʻrsatkichi sifatida tavsiflanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Evfemizmlar koʻpincha maqolalarda takrorlanadi yoki maqolaning semantik yaxlitligini taʼminlash uchun sinonimik takroriy qatorlar bilan almashtiriladi.

XULOSA

1. Evfemizmlardan foydalanishning lisoniy omillari ingliz va oʻzbek matnlarida evfemizmlarni ifodalashning asosiy usullarini koʻrib chiqishga imkon berdi, yaʼni evfemizmlar turli leksik va grammatik, sintaktik, shuningdek, stilistik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Evfemiya hodisasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, lingvopsixologiya, sosiolingvistika sohalari bilan uzviy bogʻliq. Bir qator tadqiqotlar evfemizmi qoʻpol, noxush, nomaqbul soʻzlarni yumshatish va neytrallashtirish kabi asosiy vazifalaridan tashqari, qoʻshimcha vazifalarini aniqlashga qaratilgan. Xususan, evfemizmlarning mavhumlashtirish yoʻli bilan taʼsir oʻtkazish, siyosiy aniqlik ifodasi, komik taʼsir, baholash ifodasi harakati, muayyan nutq obrazini shakllantirish kabi vazifalari eʼtiborga loyiq. Evfemizmlarning tabiati nafaqat ijtimoiy va lisoniy, balki pragmatik va diskursiv xususiyatga ega.

2. Mazkur tadqiqotda matn va diskurs xususiyatlari, xususan, publitsistik diskurs hodisasi tavsiflangan. Matn nutqning formal natijasi boʻlsa, diskurs esa nutqning ifoda jarayoni deb talqin etiladi. Publitsistik diskurs insonlarga va haqiqatga nisbatan bagʻrikengroq munosabatni namoyish etadi, bu esa evfemizmlardan faol foydalanishga olib keladi. Lisoniy takt publitsistik diskursning yagona xususiyati emas. Taʼsir va ekspressivlik vazifasi hal qiluvchi rol oʻynaydi. Boshqacha qilib aytganda, publitsistik diskurs voqelikni aks ettirishning maʼlum bir modelini oʻz ichiga oladi – faktual maʼlumotlarni hissiy taqdimot bilan birlashtiriladi.

3. Dissertasiyada evfemizmlarning lisoniy voqelanishi koʻrib chiqildi, ularning matnning semantik, kommunikativ va tarkibiy uygʻunligida ishtirok etish darajasi aniqlandi. Matnning tarkibiy yaxlitligini shakllantirib, evfemizmlar publitsistik diskursda zamon, makon va shaxs belgisi sifatida faollashadi. Diskursning tarkibiy uygʻunligini hosil qilib, evfemizmlar tema va rema sifatida faollashishi, semantik jihatdan anaforik va kataforik vazifalarga moyilligi aniqlandi.

4. Matn temporal tuzilishining muhim tarkibiy qismi sifatida evfemizmlar zamon koʻrsatkichlari boʻlib, koʻpincha vaqtning sinsematik holatlari bilan

ifodalanadi, ularni vaqtning avtosemantik holatlari sifatida faollashish, hamda monotemporal yoki politemporal zamonni ko'rsatish holatlari ham aniqlangan. Zamon kategoriyasini ko'rsatishda, ingliz va o'zbek tillari publitsistik diskursida evfemizmlar asosan o'tgan zamon, hozirgi zamon hamda hozirgi zamon davom shaklini ko'rsatishi aniqlangan.

5. Makon tuzilishning tarkibiy qismi sifatida evfemizmlar matn arxitektonikasini shakllantirishda ishtirok etadi. Bunday holda, evfemizmlar makonning avtosemantik holatlari (geografik, xususiy nomlar) va joyning sinsemantik holatlari bilan ifodalanadi. Evfemizmlar boshqa lisoniy birliklar birgalikda maqolaning makon kategoriyasini tashkil qiladi. O'zbek va ingliz tillari publitsistik matnlardagi makon kategoriyasini ifodalovchi evfemizmlar ko'pincha ot, ot va fe'l, sifat va ot so'z turkumlari birikmalari, shuningdek, o'rin-joy nomlari, xususan geografik nomlar bilan ifodalanishi mumkin.

6. Evfemizmlar ko'pincha muallifning muammoga munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi va shuning uchun shaxs kategoriyasiga ega. Ingliz va o'zbek tili publitsistik matnlari tahlili natijasida evfemizmlarning asosan III shaxs ko'plik shaklida ifodalanishi kuzatildi. Publitsistik matnlarda evfemizmlar otlar yoki fe'l va ot birikmalari vositasida voqelanadi, unda fe'lning shaxs-son qo'shimchasi ham matnning shaxs kategoriyasi tuzilishini aniqlashga ko'maklashadi. Shuningdek, shaxs kategoriyasi doirasida evfemizmlar xorijiy so'zlar yordamida ham lisoniy voqelanishi kuzatildi.

7. Evfemizmlar matnning semantik yaxlitligini shakllantirishda muhim tarkibiy omil bo'lib, anaforik va kataforik vazifalarni namoyish etadi. Ularning kataforik vazifasi o'quvchini keyingi kontekstni ochib beradigan leksemalar sifatida namoyon etadi. Tahlil qilingan maqolalarda evfemizmlar katafora sifatida turli lisoniy vositalar, ya'ni fe'l, ot (ingliz tilida noaniq artikl bilan), sifat va ot birikmasi, ot va ot birikmasi bilan ifodalanishi aniqlandi.

8. Matnning semantik yaxlitligini shakllantirishda evfemizmlarning navbatdagi vazifasi anaforikdir. Evfemizm-anafora publitsistik diskursda predikasiya mavjudligini bildiradi va qoidaga muvofiq quyidagi lisoniy vositalar bilan ifodalanadi: ot so'z turkumi (ingliz tilida aniq artikl bilan), inkor mazmunidagi so'z va ot, ko'rsatish olmoshi va ot, ot va sifat birikmasi, sifat va ko'plikdagi ot birikmasi.

9. Diskursning kommunikativ uyg'unligini ta'minlashda tema va rema xususiyatlari muhim vazifa hisoblanadi. Evfemizmlar maqola sarlavhasida yoki jumla boshida faollashib, tema vazifasini bajaradi. Grammatik jihatdan evfemizm – bu ot bilan ifodalangan temadir. Evfemizm-rema ko'pincha maqola matnida faollashadi, ot yoki sifat va ot birikmasi bilan ifodalanadi hamda muallif tomonidan matnning kommunikativ yaxlitligini shakllantirish uchun takrorlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, evfemizmlar publitsistik diskursda asosan rema sifatida faol qo'llanilishi aniqlandi. Muallif evfemizmdan foydalanib, o'quvchi uchun yangi ma'lumotlarni bosqichma-bosqich kiritish orqali publitsistik diskurs maqsadini bayon etadi.

10. Evfemizmlarni tarjimada berilishi borasida maxsus qoidalar mavjud emas. Terminologik evfemizmlar kalkalash va transliterasiya yoki transliterasiya usullarida tarjima qilinishi mukinligi aniqlandi. Barqaror evfemizmlarni tarjima qilishda muqobil soʻz yoki iborani tanlash eng toʻgʻri yechim hisoblanadi.

Shunday qilib, evfemizmlar tilshunoslarning eʼtiborini turli jihatlarida va turli lisoniy materiallarda jalb qilishi mumkin, shu bilan birga, tilni oʻrganish uchun ajralmas va qiziqarli lugʻat qatlami boʻlib qoladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

КАБИЛОВА САЙЁРА АБДУКАРИМОВНА

**ЯЗЫКОВАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ
ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В АНГЛИЙСКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2022.2.PhD/FH2559

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (русский, каракалпакский, английский(резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Сафаров Шахриёр Сафарович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сиддикова Ирода Абдулхуровна
доктор филологических наук, профессор
Усмонова Шаходат Абдурахимовна
доктора философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 03 июля 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению научных степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка йули, 21а. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрировано за № 1167). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка йули, 21а. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92)

Автореферат диссертации разослан « 9 » июля 2025 года

(Протокол-реестр рассылки № 22 от « 9 » июля 2025 года)



И.М. Тухтасинов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

Х.Б. Самигова

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.А. Якубов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом языкознании особое внимание уделяется вопросам интерпретации языковых явлений в рамках новых научных подходов, изучению лингвокультурных, прагмалингвистических, семантико-структурных особенностей текста и дискурса. Это, в частности, научное освещение языковой реальности феномена эвфемизма, считающегося важным в обеспечении коммуникативной целостности публицистического дискурса, позволяет провести научную оценку теорий о языковой систематизации их функциональных закономерностей.

В мировом языкознании феномен эвфемии изучается сравнительно в рамках различных языков, подробно освещаются их морфологические, структурно-семантические, лингвостилистические, лексикографические особенности, лексико-фразеологические, универсальные, дифференциальные, описательно-классификационные признаки единиц, относящихся к данной категории. Ведь состав формирования эвфемизмов, исследование текста в контексте описания временных, локальных и личностных категорий служит для установления оценочной ценности их функциональных закономерностей коммуникативного признака текста, а также перспектив инновационного развития.

Стимулирование научно-исследовательской деятельности и совершенствование инновационной деятельности, определяемые в качестве приоритетных направлений государственной программы «Стратегия действий»¹ по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в области науки, интеллектуального потенциала на современном этапе динамичного развития страны, поставили перед узбекским языкознанием первоочередную задачу по повышению фундаментальных исследований до уровня мировых стандартов. Владение русским, английским, немецким и другими языками в совершенстве, свободное изъяснение на иностранных языках, умение общаться, использование разных языков в межгосударственных отношениях, понимание важности взаимопонимания стали одними из актуальных вопросов сегодняшнего дня. Сопоставление и выявление роли эвфемизмов английского и узбекского языков в обеспечении семантической и коммуникативной целостности публицистического текста, сочетающего в себе политические, социальные, культурные особенности, формирование рекомендаций по их переводу создают основу для развития сопоставительного языкознания и переводоведения.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана» от

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral'. № 28 (6722).

28 января 2022 года, № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года и в ряде других нормативно-правовых актов Республики Узбекистан.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-нравственному развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировом языкознании вопрос о тексте и дискурсе рассматривается в рамках лингвистики, семиотики, прагмалингвистики, лингвокультурологии в аспектах их взаимосвязи и освещения таких свойств, как антропоцентризм, интенциональность, ситуативность, структурно-семантическая целостность, открытость, динамичность, темпоральность, локальность, такими учеными, как П. Грейс, Т.А. ван Дейк, Ч. Моррис, З.С. Харрис, Е. Шейгал, Ю.С. Степанов, И.Р. Гальперин, Н.Д. Арутюнова, Е.В. Падучева, Н.Ф. Алефиренко, В.А. Маслова, Н.Н. Миронова, И.А. Стернин, С.Г. Тер-Минасова, В.И. Карасик, в отечественной науке важное значение приобретают научные работы таких ученых, как Ш.С. Сафаров, С. Боймирзаева, Д.У. Ашурова, Д. Худойбергана, Г.К. Мирсанов, Н.З. Нормуродова².

² Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58; Dijk van T.A. Discourse, Power, Access // Texts and Practices: Reading in Critical Discourse Analyses. – London, 1996. – P. 84-104; Morris C.W. Signs, Language and Behavior. – New York: Prentice Hall, 1946. – 365 p.; Harris Z.S. Discourse Analyses: Reprints. – The Hague, 1963. – 154 p.; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – М.: Перемена, 2000. – 376 с.; Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности. // Язык и наука конца XX века: сборник статей. – Москва: Институт языкознания РАН, 1995. – С. 35-73; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 140 с.; Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. 16. – Москва, 1985. – С. 3-42; Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – Москва: Флинта: Наука, 2005. – 416 с.; Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – Москва: Наследие, 1997. – 206 с.; Миронова Н.Н. Дискурс-анализ оценочной семантики: учеб. пособие по языкознанию. – М.: Тезаурус, 1997. – 157 с.; Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: ВГУ, 1979. – 156 с.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: учеб. пос., 2002. URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/Ter/ Index.php; Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая

